



Specific use of slashes in online texts on English-language forums and blogs

Jamila ERMETOVA¹

Urgench State University named after Abu Rayhan Biruni

ARTICLE INFO

Article history:

Received October 2025

Received in revised form

15 October 2025

Accepted 15 November 2025

Available online

05 Desember 2025

Keywords:

Internet linguistics,
punctuation marks,
slash,
forums and blogs.

ABSTRACT

In this study, we analyze the characteristics and usage of the slash (/) – a punctuation mark used in linguistics, particularly in online English texts such as forums and blogs. Like other punctuation marks, the slash performs several important functions. While it was previously used mainly as a mathematical or computer symbol, in modern usage it has developed its own distinct linguistic features.

2181-3701/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss6-pp1-6>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Ingliz tilidagi forumlar va bloglar onlayn matnlarda ishlatilgan slash / – qiya chiziq'ining xususiyatlari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

internet tilshunosligi,
tinish belgilari,
qiya chiziq,
forumlar va bloglar.

Ushbu tadqiqotda biz tilshunoslikda, xususan, ingliz tilidagi onlayn matnlarda (forumlar va bloglar) ishlatiladigan tinish belgisi bo'lgan qiya chiziqning (/) xususiyatlari va ishlatilishini tahlil qilamiz. Qiya chiziq boshqa tinish belgilari singari, bir nechta muhim funksiyalarni bajaradi. Ilgari faqat matematik yoki kompyuter belgisi sifatida ishlatilgan bo'lsa, zamonaviy foydalanishda u o'ziga xos xususiyatlarga ega.

¹ Associate Professor, Department of English Language and Literature, Urgench State University named after Abu Rayhan Biruni. E-mail: jamilaermetovam@gmail.com

Особенности использования слеш / в онлайн-текстах на англоязычных форумах и в блогах

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

интернет-лингвистика,
знаки препинания,
косая черта,
форумы и блоги.

В данном исследовании мы анализируем особенности и использование косой черты / – знака препинания, используемого в лингвистике, в частности в онлайн-текстах на английском языке (форумах и блогах). Косая черта, как и другие знаки препинания, выполняет несколько важных функций. Ранее она использовалась только в качестве математического или компьютерного символа, но в современном употреблении она имеет свои уникальные особенности.

KIRISH

Hammaga ma'lumki, Internet tili – ingliz tilidir. Barcha tillar qatori, o'zbek tili uchun ham internet, ya'ni, onlayn til hozirda katta ahamiyatga ega. Shu sababli onlayn muloqotda sodir bo'layotgan o'zgarishlar kundalik tilda, kundalik nutqimizda aks etishi mumkin va qaysidir ma'noda allaqachon namoyon bo'lmoqda.

Shuni ta'kidlash kerakki, diskurs – nutq tushunchasi asrimizning boshida keng tarqaldi, xususan, E.S. Kubryakova diskursni semantik va kommunikativ nutq faoliyati natijasi deb ta'riflab, nutqni uning mavjudligining turli tomonlari va muayyan nutqni yaratilish maqsadlarini to'liqligicha o'rganish kerakligini ko'rsatadi [Kubryakova, 1996:24].

Bunga bog'liq holda Internetda joylashtirilgan materiallarning diskursiv xususiyatlari haqida savol tug'diradi. Yuqorida aytib o'tilganidek, Internet juda ko'p turli xil: jumladan, og'zaki va yozma tilga o'xshash materiallarni taklif qiladi. Bu birinchi navbatda onlayn muloqotga tegishli. Ikki tomonlama aloqa sodir bo'lgan mobil aloqada ham xuddi shunday holat yuzaga keladi. Og'zaki muloqot har doim barcha ishtirokchilar uchun umumiy kontekstni nazarda tutadi, lekin onlayn muloqotda bunday kontekst mutlaqo keraksizdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Internet shunchaki yangi texnologiyalar masalasi emas, balki inson hayotidagi tub o'zgarishlar muammosidir. Onlayn muloqot yozma va og'zaki til bilan o'xshashliklarga ega bo'lsa-da, u mutlaqo yangi hodisadir. Hozirgi vaqtda tilshunoslikning yangi sohasi paydo bo'lganligi haqida gapirish mumkin, shuningdek, internet diskursi nutq faoliyatining maxsus shakli sifatida "Internet tilshunosligi" deb nomlangan [Sidorova, Shuvalova 2006; Goroshko 2007; Crystal 2011]. Shu sabab bunday turgadi mulogotda punktuatsion belgilarning ham o'z o'rni bor va ularni ilmiy tadqiq etish zarur deb hisoblaymiz.

Ushbu tadqiqotda biz tilshunoslikda, xususan, ingliz tilidagi onlayn matnlarda ishlatilgan (forumlar va bloglar) tinish belgilaridan **slash /** – qiya chiziqning xususiyatlarini va foydalanish hodisasini ko'rib chiqamiz. **Slash** ham boshqa tinish belgilaridan kabi bir qancha muhim vazifalarni bajaradi. U ilgari faqat matematik belgi yoki kompyuter belgisi sifatida ishlatilgan, zamonaviy foydalanishda o'ziga xos xususiyatlarga ega tinish belgidir.

Cambridge Advanced Learner's Dictionary lug'atida slash belgisi quyidagicha ta'riflanadi: "Slash – harflar, raqamlar yoki so'zlarni ajratish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan tinish belgisi" [CALD]. "Slash – bu harflar, raqamlar va so'zlarni ajratish uchun

ishlatiladigan qiyshiq chiziq ko'rinishidagi tinish belgisi, shuningdek, "qiyshiq chiziq, bo'linish chizig'i, urg'u chizig'i, kasr chizig'i yoki shilling belgisi" sifatida ham tanilgan" [Quirk R., Greenbaum S., Leech G., Svartvik J., 1985:1638]. Biz esa "slash" belgisi uchun o'zbek tilida "qiya chiziq" degan tarjimasini taklif etamiz.

TAHLIL VA NATIJALAR

Dastlab faqat texnik maqsadlarda ko'plab tanlovlarni, bir xil tarkib uchun turli xil ifoda shakllarini ko'rsatadigan belgi sifatida ishlatilgan, keyinchalik ilmiy matnlarga, onlayn matnlarga, xususan, forum va blog matnlariga kirib, u yerda turli vazifalarni bajaradi.

Tor ma'noda, sintaktik qarama-qarshilikda bo'lgan bir jinsga xos komponentlarni bir-biriga bog'lab, chiziqli "qarama-qarshilik belgisi", shuningdek, turli kontekstlarda "ko'plik belgisi" ma'nosiga ega bo'lgan. *Tinish belgilari bo'yicha zamonaviy qo'llanmalarda esa slashning quyidagi vazifalari tavsiflanadi:*

✓ "slash /" – "qiya chiziq" bir nechta variantni yoki bir xil tarkib uchun ifodaning variant shakllarini korsatish uchun ishlatiladi. Slashning bunday turi ko'pincha ish taklif etuvchi e'lonlarida uchraydi:

Eng: The University of Saffron Walden wishes to appoint a lecturer/senior lecturer in media studies;

We are hiring!

We are looking to fill a position in our award-winning design studio.

Junior Designer/AutoCAD technologist

Full-time (must be in the Toronto Office)

Minimum 3 years industry experience [1]

Vacancy: Backend Developer (Node.js)

Company – AA&R Group

📍 Location: Sangotedo, Lagos | Type: Full-time/ Hybrid [2]

✓ vaqtni ko'rsatganda:

Eng: The 1994/95 football season marred by frequent scandals;

The 48-year-old World Champion continues as Bundesliga's longest-serving coach after best start since 2008/09 [3].

[4] Gunna's album is 🔥, but comparing it to 2019/2020 Roddy's album is pure disrespect...

Uzb: 2025/26 o'quv yilida universitetimizga qabul qilingan talabalar soni yanada oshdi.

Nizom 2023/2024 va 2024/2025-o'quv yillarida TDYuU huzuridagi akademik litseylarga qabul qilingan o'quvchilarga nisbatan tatbiq etiladi [5].

✓ ilmiy matnlarda **per** o'rniga birlik (qisqartmalar yaratishda): (miles/hour (miles per hour), seconds/minute (seconds per minute, weeks/year (weeks per year):

The density of iron is 7.87 g/cm³. Light travels at 300,000 km/sec;

How did the Phys test go?

It went well! [the baby weights 256 km/h] [6]

Bu holat o'zbek tilida ham aynan bir xil.

✓ kasr sonlarni yozishda, masalan, foiz % yoki 3/4; bu holda, qiya chiziq odatda "chizilgan" (kasr chizig'i) deb ataladi;

✓ she'r uzluksiz matnda yozilganda she'rdagi satrlarni ajratish uchun:

When you are old and grey and full of sleep/
And nodding by the fire, take down this book/
And slowly read of the soft look/
Your eyes had once, and of their shadows deep (W.B. Yeats);

[7] *Andrew Marvell's praise of John Milton, "Thou has not missed one thought that could be fit, / And all that was improper does omit*

✓ Internet manzillarini yozishda, masalan: <http://www.google.com/>;

✓ Bog'lovchilar belgisi sifatida and/or, masalan:

Please, write him/her a letter (R. Trask).

i stan she/her richard [8]

Ko'rib chiqilgan forum va blog materiallarida ba'zi hollarda muallif tinish belgilarini qoldirib, gapning barcha qismlarini slash (/) bilan ajratadi. Slash tinish belgisi (/) aslida nisbatan yaqinda paydo bo'lgan, lekin tobora ko'proq foydalanilmoqda. Bu mutlaqo yangi hodisa bo'lib, ilgari inglizcha tinish belgilari tizimida mavjud bo'lmagan yoki faqat o'ta aniq maqsadlarda qo'llanilgan, qiya chiziq bilan ajratilgan qismlardan (ya'ni, teng ma'noga ega) tanlashda faqat bitta variantni tanlash mumkin edi.

Hozirgi vaqtda slashning funksiyalari o'zgarib bormoqda. Xususan, u nuqta, nuqtali vergul, ikki nuqta yoki vergulning ekvivalenti sifatida ishlatiladi va uzunroq gapda sintaktik ahamiyatga ega qismlarni ajratadi. Forum matnlaridan slash nuqta yoki vergul uchun belgi bo'lib xizmat qiladigan ba'zi misollar:

It makes little difference/ personally, I use laptop and iPad/ because I just love them! **(Dream Worker)**

I don't think you'd be marked down in an exam for it/ My English Teacher did/ **(Gun 77)**

Quyidagi holatda ko'p tanlov ko'rsatkichi, bir xil mazmun uchun ifoda shakllarining o'zgaruvchanligi ko'rsatkichi sifatida slash belgisidan an'anaviy me'yoriy foydalanish holatlari mavjudligini ko'ramiz, masalan:

English grammar and vocabulary: quick questions thread

Personification is when you apply human/animal characteristics into an inanimate object/abstract idea etc. So if you said that the "storm was angry" or "the storm howled" a human or animal emotion has been used to describe the storm. Hope this helps.

@GoldenJoysticks so what? It is possible to put it in PC/Console category. Not like your fail excuse, it's an exclusive, when you put for example Silksong in PC, while it's on switch as well [9]

In my head you are blue/red and Idc if thats completely wrong [10]

Forum matnlarida slash belgisi qavslarni belgilash uchun ishlatiladigan holatlar ham mavjud, masalan:

English grammar and vocabulary

Hey, I need a noun for someone /many will be appreciated/ who is very curious.

//As always, please provide us the source of your material// [11]

O'rganilayotgan materialda slash / belgisi qavs sifatida ishlatilganda jilmayish ma'nosida kelgan holatlar mavjud. Bu xususiyat onlayn tinish belgilari uchun mutlaqo yangi; Biz bloglar va forumlardan misollar keltiramiz.

Red bull is your friend /©/

I know, I'm sorry. I just did not want anyone willing to help with my essay. Sorry for sounding like a dick /©/

As my gurl Sabrina said, Heartbreak is one thing, my ego's another /©/ [12]

Slash / belgisidan kulgich/smaylik sifatida foydalanishga oid ba'zi misollarni aytib o'tish joiz, ya'ni bu belgi ba'zi hollarda, asosan, forum matnlarida norozilik, ko'ngilsizlik, umidsizlik yoki norozilikni ifodalovchi kulgich yaratish uchun ishlatiladi. Piktogramma quyidagicha ko'rinadi:/, masalan:

I don't use them with the "and" in a list, but and separating clauses I do: /. Not sure if this is correct, but it never got a big red ring around them in school: / **(TSR Legend)**.

Out of Office:/ [13]

Hard finding faceit games in NA apperently:/ [14]

Forum va blog matnlarida yuqorida sanab o'tilgan slash belgisining asosiy funktsiyalariga qo'shimcha ravishda, bu belgi ko'pincha ikki harfli qisqartmalarda, masalan, a/b (haqida), b/w (between), h/e (however), i/o (input-output), r/w (read-write), s/o (someone), s/t (sometimes), t/r (tomorrow), w/t (with), w/o (without), w/e (whatever, also weekend or week ending) uchraydi.

Hi! I've looked at Aberdeen too!! Are the entry requirements BBB? And I was going to apply to Leeds but I got ABCD at AS and Leeds wants AAB for English! Was thinking **a/b** a combined course with Religious Studies (**snowwhitequeen**).

Hey, I need a noun for s/o that is very curious. S/t I have no idea what to do **w/t** such shit (**Gerald guy**).

Steelers had a defense last year. This year the Steelers are trying to win **w/o** a defense [15].

Symbols are full of **w/e** intent you put in them. If they're fun-spooky, that's what they are [16].

Michigan's media team told me no one would notice I put a B/W filter on this [17].

Xulosa sifatida ta'kidlash kerakki, o'rganilgan matnlarda slash belgisi juda keng tarqalgan qiya chiziq belgisi ham an'anaviy jumla vazifalariga ham mutlaqo yangilariga xizmat qilgan:

- nuqta yoki vergul o'rniga ishlatilgan;
- ikki nuqta o'rniga;
- qavs sifatida (shu jumladan kulgich/ emoji);
- ikki harfli qisqartmada;
- ko'plik belgisi sifatida.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Кубрякова Е.С. и др. Краткий словарь когнитивных терминов. – М.: МГУ, 1996. – 24 с.
2. Сидорова М.Ю., Шувалова О.Н. Интернет – лингвистика: вымышленные языки М., 1989, 2006.
3. Ermetova J. SYNCHRONIC AND DIACHRONIC APPROACHES TO THE STUDY SOME PROBLEMS OF ENGLISH PUNCTUATION //Конференции. – 2021.
4. Goroshko O.I. Comparative study on transmedia awareness of traditional media audiences and social media users. RUDN Journal of Studies in Literature, 2007
5. Crystal D. Internet Linguistics. Student's Guide. Australian Review of Applied Linguistics 35(2): 218-220, 2011
6. CALD Cambridge Advanced Learner's Dictionary
7. https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/#google_vignette

8. Quirk R., Greenbaum S., Leech G., Svartvik J. A Comprehensive Grammar of the English Language. London: Longman. 1985.

9. R. Trask, 1997:124-125; Cambridge Grammar of English, 2006: 851.

10. <https://x.com/lorimorrisinc/status/1980307058441535846>

11. <https://x.com/jobhubbywatife/status/1980304448271339991>

12. http://x.com/Hen_Livgot/status/1976679520267575353

13. <https://x.com/chosekingin/status/1980307119711862917>

14. <https://t.me/eduuz/35413>

15. <https://x.com/ClaudioVirili/status/1980323989034787109>

16. <https://english.stackexchange.com/questions/459912/short-quotation-over-two-paragraphs/460631#460631>

17. <https://x.com/mothmanbussy/status/1980176723804315762>

18. <https://x.com/Rinwell/status/1980291465080410154>

19. <https://x.com/polypup12387074/status/1980295667139670152>

20. <https://forum.wordreference.com/threads/double-slash-instead-of-inverted-commas.3418956/>

21. <https://x.com/MarghulisValaar/status/1980333647631888523>

22. <https://x.com/alligatoah/status/1736032757489315843>

23. <https://x.com/Plopski/status/1929309482351292699>

24. https://x.com/Jerry_Joseph/status/1980320190190743873

25. <https://x.com/pavelkasuncle/status/1980322166706172284>